



OROL DENGIZI HAVZASIDAGI EKOLOGIK VAZIYAT-MARKAZIY OSIYO EKOLOGIK BARQARORLIGIGA TAHDIR

Kurbanov Alimardon Sattorali o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda Vaziyatlar Vazirligi Akademiyasi
Huzuridagi Fuqaro Muhofazasi Instituti

2-Bosqich Magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7982100>

ARTICLE INFO

Received: 22th May 2023

Accepted: 28th May 2023

Online: 29th May 2023

KEY WORDS

Orol dengizi, Markaziy Osiyo, Birlashgan Millatlar tashkiloti, ekologik vaziyat, aholi salomatligi, Amudaryo, Sirdaryo, chuchuk suv, chol' zonası. ўтказиш режими.

ABSTRACT

Orol dengizi qurishi oqibatida yuzaga kelgan ekologik vaziyat Markaziy Osiyoda ekologiyasiga katta ta'sir o'tkazib kelayapti. Orol dengizining qurib qolgan qismidan shamol ta'sirida atmosferaga yiliga 100 mln tonnadan ortiq tuz va qum zarralari ko'tarilib, yaqin 400 km radius masofadagi zonalarga yoyilib, o'zining salbiy ta'sirini o'tkazib kelayapti. Orol dengizi havzasidagi ekologik vaziyatni yaxshilash hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri.

Kirish

Tabiat, jamiyat va inson o'rtasida ma'lum mutanosiblik qonuniyatları mavjud. Ushbu qonuniyatlarga rioya qilmaslik pirovard natijada ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelishi mumkin. Mavjud tabiiy resurslardan to'g'ri foydalanmaslik tabiat va atrof-muhitdagli tenglik va mutanosiblikning izdan chiqishiga sabab bo'ladi. Natijada, dunyo mamlakatlarining ayrim hududlarida bebaho bo'lgan yer, suv, havo ifloslanib, yaroqsiz holga kelib qolmoqda va ayrim o'simlik, o'rmon hamda hayvonot dunyosi turlari qisqarib ketmoqda.

Shunday ekologik muammolardan biri Orol dengizi bilan bog'liq muammo bo'lib, ushbu muammo hozirgi kunda xalqaro miqyosga ko'tarildi.


Asosiy qism. Markaziy Osiyo suv xavfsizligi, energiya, oziq-ovqat va atrof-muhit bilan uzviy bog'liq bo'lgan dunyodagi kam sonli mintaqalardan biridir. Bu yerda suv resurslari strategik ahamiyat kasb etadi. [11] Tarixiy jihatdan, quruq va qattiq iqlimi tufayli hozirgi O'zbekiston hududida har qanday sivilizatsiya saqlanib qolishi va taraqqiy etishining asosiy elementi suv resurslaridan foydalanish hisoblanadi. Mintaqadagi dastlabki yirik shaharlar: Samarqand va Buxoro Zarafshon daryosi bo'yida, Urganch va Xiva Amudaryo bo'yida barpo etilgani ham bejiz emas. Ushbu hududlardagi davlatlar suv tufayli mintaqada ustun mavqega ega edi, tarixan ham suv mintaqada gegemonlikni ta'minlashda eng muhim vosita edi.

Suv manbalaridan ortiqcha foydalanish natijasida mintaqada turli jiddiy muammolar paydo bo'lmoqda va ayanchli holatga tushgan Orol dengizi bunga yorqin misol.

1960 yillargacha Orol dengiziga kelib tushadigan suv miqdori 74,0 mlrd. m³ miqdorni tashkil qilgan. 1960-1970-yillar oralig'ida Orol dengiziga tushadigan suvning hajmi kamaya boshlagan va 1970-yillarga kelib suv sathi yiliga 1m. 80 sm pasaya boshlagan. Hozirgi kunga

kelib Orol dengiziga kelib tushadigan suv hajmi 1,6-2,7 mlrd. m³ gacha kamayib, uning suv sathi so'ngi yillar ichida 19-23 metrga pasaygan. Dengiz maydoni 8600 km² ga qisqariq oldingi suv mavjud joyda 60300 km² maydon ochilib qoldi. Natijada Markaziy Osiyodagi uchinchi cho'l "Orolqum" paydo bo'ldi.

Yuqorida keltirilgan sabablar tufayli Orol dengizining hajmi kamayib, avvallari suv bo'lgan joylarda qum va tuzdan iborat cho'llar paydo bo'lmoqda. Bu esa global miqyosdagi ekologik muammolarga sabab bo'lmoqda. Orol dengiziga quyiladigan suv miqdorining kamayishi natijasida dengizning chekinishi bilan birga uning sho'rланish darajasi ham ortib bormoqda. Dengiz suvidagi tuz miqdori avvalgi 11-13%dan 58-60 %ga ortmoqda.



Orol dengizining yillar kesimidagi fotosuratlari

Orol dengizi avvalgi qirg'oqlaridan 50 km, ayrim joylarda esa 150 km ga chekindi. Bunday holat Amudaryodan tashqari Sirdaryodagi suv miqdorining kamayib ketishi bilan ham bog'liq.

1913 yilda Orol dengiziga boradigan suv bilan sug'oriladigan yerlar maydoni 3,2 mln hektar bo'lgan bo'lsa, 1985 yilga kelib bu ko'rsatkich 6,9 mln hektarga yetgan;

XX asr davomida Orolbo'yи hududlarida, Markaziy Osiyo va qisman Afg'oniston aholisi soni 14 mln.dan 65 mln.gacha ortgan. Shuningdek, qishloq xo'jaligi maqsadlarida yerning sho'rini yuvishga ham katta miqdorda suv sarflangan.

Dengizning qurigan qatlamidan kelib chiqqan chang va tuzli bo'ronlar sug'oriladigan yerlarga ham, aholi sog'lig'iga ham ta'sir qilmoqda. Ushbu keskin o'zgarishlar bir qancha jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda:

Birinchidan, Orolbo'yи hududlarida yashovchi aholining turmush sharoiti pasayishi bilan bir qatorda, ularning sog'lig'ida turli muammolar paydo bo'la boshladi;

Ikkinchidan, mahalliy iqtisodiyot tanazzulga uchradi (baliq ovi, qisqa muddatli turizm kabi sohalar) va yashash imkoniyatlari qiyinlashdi;



Uchinchidan, ichimlik suvi tanqisligi, xavfli kasalliklar tarqalishi, yashash sharoitlari og'irlashishi natijasida aholi migratsiyasi ko'paydi;

To'rtingchidan, yovvoyi o'simliklar va hayvonot dunyosi qirilib ketmoqda va mahalliy aholi uchun o'z madaniy merosni yo'qotish xavfi ortmoqda. [9]

Hozirgi paytda Markaziy Osiyodagi suv resurslarining 90 foizi sug'orma dehqonchilik uchun ishlatilmoqda. Suv qishloq xo'jaligining asosi hisoblanadi va bu tarmoq Markaziy Osiyodagi beshta mamlakat iqtisodiyotida ham muhim rol o'ynaydi, chunki qishloq xo'jaligi sohasi bu mamlakatlar yalpi ichki mahsulotning ning 10 foizidan 45 foizigacha bo'lgan qismini tashkil etadi. Shuningdek, qishloq joylardagi aholining 20 foizdan ko'p qismi shu tarmoq orqali ish bilan ta'minlangan va tirikchilik qiladi. [8]

Markziy Osiyo davlatlari tomonidan Orol dengizining qurishini oldini olish, Orol dengizi havzasida yuzaga kelgan ekologik vaziyatni yaxshilash borasida qat'iy chora tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Hozirdi kunda Orol dengizi havzasidagi ekologik vaziyat butun dunyo nigohiga tushdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 2020-yil sentabr oyida bo'lib o'tgan 75-sessiyasida so'zlagan nutqida tashkilotga a'zo davlatlarni ushbu masala bo'yicha maxsus rezolyutsiya ishlab chiqish va qabul qilishga chaqirdi. Ushbu nutq butunjahon hamjamiyatining hamda Xalqaro tashkilotlarning Orol dengizi havzasidagi ekologik vaziyatni yaxshilashga chuqurroq yondashish lozimligiga turtki bo'ldi. Davlatimiz rahbari o'z bayonotida mazkur tashabbus yuqori texnologiyali innovatsiyalar, ekologik toza, energiya va suvni tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish uchun investitsiyalarni jalb etish uchun shart-sharoitlar yaratish, yashil iqtisodiyot tamoyillarini har tomonlama qo'llash, shuningdek, iqtisodiyotni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotganini alohida ta'kidladi. Yerlarning yanada tanazzulga uchrashi, cho'llanish va ekologik migratsiyaning oldini olish, ekoturizmni rivojlantirish va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini takidladi. [3]



Sh.

M. Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasidagi 75-sessiyasidagi nutqi



2021-yil 18-may kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 75-sessiyasining yalpi majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Orolbo'yи hududini bir ovozdan Orolbo'yи mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasini deb e'lon qilish to'g'risida maxsus rezolyutsiya qabul qilindi.

Ushbu rezolyutsiyani mazmun mohiyati shundan iboratki:

- Orolbo'yida ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy va demografik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan mintaqaviy tadbirlar va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashini e'lon qiladi;
- atrof-muhitni yanada tiklash va yaxshilash, tabiiy resurslarni asrab-avaylash va Orolbo'yida aholisining hayot sifatini yaxshilash manfaatlarini ko'zlab ilmiy va ilmiy-tadqiqot maslahat faoliyatini rag'batlantiradi;
- Orol dengizi inqirozi oqibatlarini bartaraf etish va Orolbo'yida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, yanada cho'llanishning oldini olish va barqaror saqlash orqali salbiy ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni yumshatish bo'yicha qo'shma chora-tadbirlarni amalga oshirishda mintaqaviy hamkorlikni faollashtirish muhimligini ta'kidlaydi. Orol dengizining qurigan tubidagi kul, tuz va chang ko'chishi jarayonlariga moyil bo'lgan qum hosilalarining o'rmon meliorativ holatini yaxshilash usullari, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish va iqlim o'zgarishiga moslashish, ekoturizmni rivojlanish va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- a'zo davlatlarni, BMT tizimidagi fondlar, dasturlar va agentliklarni, xalqaro moliya institutlarni va boshqa manfaatdor tomonlarni Orolbo'yida qo'shma fanlararo tadqiqotlar o'tkazish va ilmiy-innovatsion hamkorlikni amalga oshirish, ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, barqaror inklyuziv texnologiyalarni rivojlanishiga chaqiradi va 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibiga muvofiq ekologik barqaror iqtisodiy o'sish va energiya va suvni tejash texnologiyalarini qo'llashni amalga oshiradi.

Hozirgi kunda Orol dengizi havzasida ekologik vaziyatni yaxshilash borasida yirik loyihamalar amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan bir qatorda quyidagi tavsiyalarni amalda qo'llash ekologik vaziyatni yaxshilashga hissa qo'shadi deb hisoblayman.

Qonunchilikni takomillashtirish. Bugungi kunda ekologiyaga oid ko'plab qonun va qarorlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularda belgilangan talablar izchil amalga oshirib borilmoqda. Shu bilan birga kelajakda yangi qarorlar ishlab chiqish, ularga o'zgartirishlar kiritishda atrof-muhitni muhofaza qilish, xususan, Orol dengizi bilan bog'liq ekologik vaziyatni yaxshilashga doir masalalar yanada kengroq qamrab olinishi lozim.

To'qayzorlar, o'rmonlar tashkil qilish. Ma'lumki, to'qayzorlar va o'rmonlar shamol ta'sirida tuz va chang ko'tarilishining oldini oladigan eng yaxshi vosita hisoblanadi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun Global ekologik fond yordamida hamda ichki mablag'lar hisobidan qator loyihamalar amalga oshirilmoqda. Xususan har yili minglab hektar maydonlarga saksovullar ekilmoqda.

O'rmon va to'qayzorlar o'z tomirlari yordamida tuproqni o'zida ushlab turadi. Karbonat angidridni yutib, kislorod ajratadi. Ijobiy miqroiqlimni yuzaga keltiradi. Yirik o'rmonzorlar Orol dengizi qurishi bilan bog'liq ko'plab muammolarning yechilishiga xizmat qiladi. Boshqa sohalarning, masalan, chorvachilikning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Sho'rga chidamli o'simlik turlarini ko'paytirish. Orolbo'yida sho'rstanish darajasi yuqori bo'lgani bois bu yerda har xil o'simlik turlarini ko'paytirishning iloji yo'q. Shuning



uchun sho'rga chidamli o'simliklarni ko'paytirish bo'yicha jahon tajribasini o'rganish va bunday o'simliklarni sinab ko'rish va ko'paytirish lozim. Buning uchun cho'lga mos ko'chatlarni ko'paytirish bo'yicha markaz tashkil qilish. Orol dengizining qurigan hududlaridagi chang va zaharli tuzlarning ko'tarilishiga to'sqinlik qiladigan shunday o'simliklar bilan qoplash lozim.

Aholi salomatligini yaxshilash. Orol dengizi bilan bog'liq ekologik vaziyat oqibatlarini bartaraf etish tadbirlaridan biri aholi salomatligini mustahkamlash hisoblanadi. Hozirgi kunda Orolbo'yi aholisi salomatligini yaxshilash uchun poliklinikalar, ambulatoriyalar va boshqa tibbiy muassasalar va tibbiyot xodimlari sonini ko'paytirish kerak bo'ladi.

Suvni boshqarish va saqlash: Mintaqadagi suv resurslaridan barqaror foydalanishni ta'minlash uchun suvni samarali boshqarish amaliyotini joriy etish. Bu suv isrofgarchiligini kamaytirish, suvni qayta ishlash va qayta foydalanishni rag'batlantirish, tomchilatib sug'orish va nozik dehqonchilik kabi ilg'or sug'orish usullarini joriy etishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, ekotizim va mahalliy jamoalarning ehtiyojlarini bиринчи о'ringa qo'yadigan suv taqsimoti rejalarini tuzish sog'lom suv balansini saqlashga yordam beradi.

Barqaror qishloq xo'jaligi: agrokimyoiy moddalardan foydalanishni minimallashtiradigan va tuproq eroziyasini kamaytiradigan barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarini targ'ib qilish. Tuproq unumдорлиги va bioxilma-xilligini oshirish uchun organik dehqonchilik usullari va agroo'rmon xo'jaligi texnikasini qo'llashni rag'batlantirish. Suvni ko'p talab qiluvchi ekinlarga qaramlikni kamaytirish va qishloq xo'jaligining barqarorligini oshirish uchun ekinlarni diversifikatsiya va almashlab ekishni joriy etish.

Xalqaro hamkorlik. Orol dengizi qurishi tufayli mintaqada ekologik vaziyatning keskinlashishi va globallashish tendensiyasiga jahon hamjamiyati e'tiborini kuchaytirish lozim.

Monitoring. Xalqaro siyosiy hamkorlik va monitoringi institutsional tizimi shakllantirishni tezlashtirish kerak

Xulosa

Xalqlarning farovon yashashi va iqtisodiy taraqqiyotida, hozirgi va kelajak avlod manfaatlari yo'lida atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalari muhim o'rinni tutadi.

Orol dengizi havzasidagi ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha olib borilayotgan ishlar samarasi kelgusi 10 yillikda ko'rindi deb o'ylayman.

Shunday samarali ishlar tashkil qilib kelinayotgan bo'lsada, Orol dengizi bilan bog'liq ekologik vaziyatni yaxshilash va oqibatlarini kamaytirish borasida bir qancha tadbirlar amalga oshirilish ekologik vaziyatni yanada tez sur'atlarda yaxshilanishiga xizmat qiladi deb hisoblayman. Bunday tadbirlarga qonunchilikni takomillashtirish, suvdan tejamli tarzda foydalanishning yangi usullarini ishlab chiqish, yangi to'qayzorlar va o'rmonlar tashkil qilish, sho'rga chidamli o'simlik turlarini ko'paytirish, bioxilma-xillikni ta'minlash va boshqa tadbirlar kiradi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining 754-XII-son 09.12.1992 yildagi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni.



2. O'zbekiston Respublikasining 837-son XII-son 06.05.1993 yildagi "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida. 23-sentyabr 2020 yil.
4. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischilari-davlat rahbarlari Kengashining majlisidagi nutqi. 25.08.2018, Turkmanboshi. Turkmaniston.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019 yil 17 iyundagi pf-5742-son farmoni.
6. Nursulton Nazarboyev Orol dengizi muammosiga izoh berdi. Sentyabr 16, 2017: http://www.inform.kz/ru/problemu-arat-skogo-morya-prokommertiroval-Nursulton-nazarbaev_a3065736
7. O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligining rasmiy veb sayti <https://mfa.uz/ru/cooperation/aral/1404/>
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qishloq xo'jaligi yerlarini konservatsiya qilish tartibi" to'g'risidagi 2020 yil 17 dekabrdagi 791-son qarori.
9. Barqaror rivojlanish bo'yicha birinchi Orol xalqaro forumi. 30 may-31 may 2017, Qizilo'rda, Qozog'iston: <http://kyzylordatv.kz/ru/news/society/pervyi-aralskii-forum>
10. Аладдин Н.В., Миклин Ф., Плотников И.С., Смурров А.О., Гонтарь В.И. Изменение бионты Аральского моря во второй половине XX и в начале XXI века, Арал 2003, Душанбе, 2004 г.).
11. Kuznetsov E. A., Zh. A. Abenova Orol dengizining tiklanish istiqbollari // Axborotnomasi KazNPU. Abayning. - 3. - P. 113-116.
12. "Mintaqaviy ekologik muammolar va milliy ustuvorlik" <http://ekolog.uz/>.
13. Orol dengizi bo'yicha xalqaro konferensiya <http://xorazm.uz/uz/faoliyat/>.
14. <http://www.exacteditions.com/exact/browse/481/565/3772/2/73?dps=on>